

Буйруқ маълумотларини бошқариш.

Буйруқ яратиш

Буйруқларни яратиш тизимнинг **Talaba harakati / Buyruqlar** менюси орқали амалга оширилади (1-расм)




3.4.5-расм. Буйруқ яратиш ойнаси.

Буйруқ яратиш учун ойнадан **+Yaratish** тугмасини танланг. Натижада буйруқ маълумотларини шакллантириш ойнаси пайдо бўлади (2-расм). Буйруқ маълумотларини қуйидагича шакллантиринг, бунда:

- **Fakultet** майдонида факультет маълумоти автоматик шаклланади;
- **Buyruq turi** майдонидан буйруқ турини танланг, масалан ўқишга қабул қилиш буйруғи;
- **Nomi** майдонига буйруқ номини киритинг;
- **Buyruq maqsadi** майдонига буйруқ мақсадини киритинг;
- **Buyruq tarkibi** майдонига буйруқ таркибини киритинг;
- **Buyruq sanasi** майдонидан буйруқ санасини танланг;
- **Buyruq raqami** майдонига буйруқ рақамини киритинг;
- **Holati** буйруқ ҳолатини танланг;
- **Buyruq fayli** буйруқ файлини бириктиринг.

Барча маълумотлар киритилгандан сўнг **Saqlash** тугмаси босилади ва натижада буйруқ маълумотлари шаклланади (2-расм).



2-расм. Буйруқ маълумотларини шакллантириш

Яратилган буйруқлар рўйхатини кўриш учун **Talaba harakati / Buyruqlar** менюсини танланг. Натижада буйруқлар рўйхати очилади (3-расм).

#	Buyruq raqami	Buyruq sanasi	Nomi	Buyruq turi	Fakultet	Talabalar	Yaratilgan	Faol
1	25/10/2021	25.10.2021	bitirish 2021	O'qishni bitirish	Telekommunikatsiya texnologiyalari	1 talaba	25.10.2021 21:55:38	<input type="checkbox"/>
2	60/09/21	06.09.2021	1-kursga_qabul_2021_yil	O'qishga qabul qilish	Telekommunikatsiya texnologiyalari	2 talaba	18.10.2021 23:01:02	<input type="checkbox"/>
3	06-10	06.10.2021	Talabalarga stipendiya tayinlash	Stipendiya tayinlash	Telekommunikatsiya texnologiyalari	10 talaba	06.10.2021 14:48:19	<input type="checkbox"/>
4	2209	29.09.2021	ko'chirish	O'qishni ko'chirish	Telekommunikatsiya texnologiyalari	8 talaba	22.09.2021 15:35:40	<input type="checkbox"/>
5	10001	18.09.2021	TTTTTiklash	O'qishga tiklash	Telekommunikatsiya texnologiyalari	6 talaba	18.09.2021 14:07:40	<input type="checkbox"/>

3-расм. Буйруқлар рўйхати

Буйруқлар рўйхатидан **Biriktirish** тугмасини танлаш орқали ўқишга қабул қилинган талабаларни қабул буйруғига бириктириш мумкин (3-расм).

#	Talaba	Ta'lim turi	Kurs	Guruh
<input checked="" type="checkbox"/>	1 REYTING-IKKI REYTING-IKKI REYTING-IKKI 999211100023	Bakalavr Kunduzgi	2-kurs 3-semestr	810-20
<input type="checkbox"/>	2 REYTING-UCH REYTING-UCH REYTING-UCH 999211100024	Bakalavr Kunduzgi	2-kurs 3-semestr	810-20

1-2 / jami 2 ta

Telecom 2020-2021 reyting

2021-2022

2-kurs

3-semestr

810-20

F.I.O / Talaba raqami / Passport bo'yicha qidirish

Talabalar soni

1

Buyruq

60/09/21 / 06.09.2021 / 1-kursga_qabul_2021_yil

Hujjat sanasi

06.09.2021

4-расм. Талабани буйруққа бириктириш.

Талабалар билан ишлаш жараёнида буйруқларга мурожаат қилинганда яратилган буйруқларда талабалар сони автоматик тарзда шаклланади. Талабалар буйруққа бирикканлигини буйруқлар рўйхати ойнадасидаги буйруқ қаторининг **Talabalar** устинида талабалар сони кўрсатиб беради (2-расм). Талабалар рўйхатини кўриш учун талабалар сонини танланг. Натижада танланган буйруққа тегишли талабалар рўйхати пайдо бўлади (5-расм).

#	Ismi °	Semestr	Guruh	Sana
1	AKRAMOV ALIBEK ALIMOVICH 999201100052 / Bakalavr / Kunduzgi / 5350100	2-semestr	210-20 TTu	08.10.2021 21:52:35
2	MAXSUSSIRTQI MAXSUSSIRTQI MAXSUSSIRTQI 999211100050 / Bakalavr / Kunduzgi / 5350100	3-semestr	211-20 TTu	09.10.2021 01:05:28

5-расм. Буйруққа тегишли талабалар рўйхати

Буйруқни шакллантириш жараёнида буйруққа тегишли файл юкланган эди. Ушбу файлни кўчириш учун 3-расмда келтирилган буйруқлар рўйхати ойнасидан **Yuklab Olish** тугмаси босилади.

Буйруқ маълумотларини таҳрирлаш

Буйруқ маълумотларини таҳрирлаш учун тизимнинг **Talaba harakati / Buyruqlar** менюсига кирилади. Натижада буйруқлар рўйхати очилади (3-расм). Рўйхатдан бирор бир буйруқ танланса буйруқ маълумотларини таҳрирлаш ойнаси очилади (2-расм). Ушбу ойнадан бирор бир ўзгаришни амалга оширинг ва **Saqlash** тугмасини босинг.

Буйруқ маълумотларини ўчириш

Буйруқ маълумотларини ўчириш учун буйруқлар рўйхатидан буйруқ танланади ва таҳрирлаш ойнасидан **O'chirish** тугмасини танланади (2-расм).